

**MUNOZARALI DARSLAR TASHKIL ETISH VA “KEYS STADI”
METODLARINI DARS JARAYONIDA QO’LLASH**

Urinov Alisher Musirmon o’g’li
PHD. email pochta a.orinov@afu.uz
Erdanayeva Shahnoza Po’latovna.
email: erdanayevashahnoza@gmail.com
Alfraganus university NOTT

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muammoli ta’lim texnologiyalaridan “Munozara darslar” va “Keys stadi” metodlari yordamida mulohazalar asosiy teng kuchli mavzusini o’qitishda qo’llash namunalari keltirilgan. Avvalo, shu ikki metod bo‘yicha umumiy ma’lumotlar, yutuq va kamchiliklari o’rganilgan. Berilgan topshiriqlar yechimlari bilan birga tahlil qilinib, dars maqsadiga erishish yo’llari o’rganilgan. Jarayoni o’rganishda Ta’lim oluvchilarning aktiv qatnashganliklari tufayli mavzu xotiralarida uzoq saqlanib, faol bilim zahirasini tashkil etishi xaqida aytib o’tilgan.*

Kalit so‘zlar: “Keys stadi” metodi, metodi, muammoli ta’lim, teng kuchli formulalar, ta’lim, ta’lim oluvchilar.

Muammoli ta’lim – talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarini asoslash, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko’nikma va malakalarni shakllantirishga yo’naltirilgan ta’limdir. Bizga yaxshi ma’lumki, ta’lim sifatini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalarni o’rni beqiyosdir [1-30].

Asosiy yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

- Ijtimoiy
- Konstruktiv
- Badiiy ifodaviy
- Ilmiy-tadqiqot yo`nalishlaridir mazkur ta’lim jarayonida tizimli yondashish, yangi pedagogic amaliyotida ma’ruza seminar, muommoli moduli, dedaktik o’yinlar, sinov – darslari bir qatorda munozarali darslardan ham foydalanish muhim axamiyati kasb etadi.
- Munozarali darslar mazmun mohiyatiga ko’ra:
- Ilmiy munozara darslari,
- Erkin fikrlash darslariga ajratiladi.

Muammoli ta’limning bosh maqsadi - talabalarning muammoni to‘liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o’rgatishdan iborat.

Muammoli ta’limni amaliyotda qo’llash asosiy masalalardan biri o’rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat. Turli o‘quv fanlari bo‘yicha o‘qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko‘zda tutishlari kerak. Shunday muammoli texnologiyalardan biridir. Muammoli texnologiyalardan yana birtasi – “Keys-stadi” bo‘lib, (inglizcha keys - to‘plam,

aniq vaziyat, study -ta'lim) keysda bayon qilingan va talabalarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammolivaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubidir. Keys-stadi - ta'lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida bashorat qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir Keysda tavsiflangan aniq vaziyat o'rganishni voqelikka bog'lab qo'yadi: sizga muammoni hal etish bo'yicha vaziyatni tahlil qilish, tahminlarni shakllantirish, muammolarni aniqlash, qo'shimcha ma'lumotni yig'ish, tahminlarni aniqlashtirish va aniq qadamlarni loyihalashtirish imkonini beradi. O'quv uslubi sifatida quyidagilarni ta'minlaydi:

- o'rganilgan o'quv mavzu, kursi bo'yicha (nazariy ta'limdan so'ng) bilimlarni mustahkamlashni;
- muammolarni tahlil qilish va qarorlarni yakka tartibda va guruhli qabul qilish ko'nikmalarini egallashni;
- ijodiy va o'rganish qobiliyatlar, mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishni;
- yangilikka, qarorlarni mustaqil qabul qilishga tayyorgarlikni;
- mas'ulдорлик, mustaqillik, kommunikativlik va empatiya, refleksiyaning shakllanishini; o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirish sifatini o'z tekshirishini (o'quv dasturi yakunida).

O'quv mashg'ulotlarida keyslarni hal qilish algoritmi quyidagicha:

1. Topshiriqni berish. Doimo ijobiy javobga erishadigan murakkab mulohaza tuza olasizmi?
2. Ta'lim beruvchining kirish so'zi. Asosiy savollarning qo'yilishi – teng kuchli formulalarga doir teoremlardan foydalaniib, tavtologiya bo'ladigan kamida ikkita propozitsional o'zgaruvchi qatnashgan formulani tuzish.
3. Talabalarni 4-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratish. 24 ta talaba qatnashgan guruhnini 4 ta 6 tadan talaba qatnashgan kichik guruhga ajratamiz.
4. Talabalarning mikroguruhlardagi faoliyatini tashkil qilish. 4 ta teng kuchli formulalarga doir teorema taqsimlab beriladi.
5. Mikroguruhlardagi javoblar bilan tanishishini tashkil qilish.

Masalan: 1-guruh javobi bu- Ushbu

$$\begin{aligned} & \frac{f(x)}{x} \rightarrow 1 \quad \text{as } x \rightarrow 0 \\ & f(x) = x \sin \frac{1}{x} \end{aligned}$$

funksiya $x_0 \rightarrow 0$ nuqtada hosilaga ega bo'ladimi?

◀Bu funksiya uchun

1

$$\lim_{x \rightarrow x_0} \frac{f(x)}{x} = \lim_{x \rightarrow x_0} \frac{x \sin \frac{1}{x}}{x} = \lim_{x \rightarrow x_0} \sin \frac{1}{x}$$

$$= \sin \frac{1}{x_0}$$

bo'lib, $x \rightarrow x_0 \rightarrow 0$ limit mavjud emas. Demak, berilgan funksiya $x_0 \rightarrow 0$ nuqtada hosilaga ega emas.

6. Mikroguruqlararo munozarani tashkil qilish. Keltirib chiqarilgan formulalar tushuntiriladi va isbotlanadi. Boshqa formulalarni keltirib chiqarish usullari munozara qilinadi.

7. Ta'lif beruvchining umumlashtiruvchi so'zi, uning vaziyat yechimi to'g'risidagi fikri.

8. Talabalarni baholanishi.

9. Talabalarning mashg'ulot haqidagi fikrlari.

10. Ta'lif beruvchining yakunlovchi so'zi. Mashg'ulot bo'yicha xulosalar chiqarish.

Keyslarni hal qilishda ta'lif beruvchi talabalarни yo'naltirib turishi va ulardagи faollikni qo'llashi, hal qilinayotgan muammoga nisbatan qiziqish uyg'otib turishi darkor.

Keyslardan ta'lif jarayonida foydalanish talabalar shaxsida quyidagi professional-pedagogik zaruriy sifatlarni shakllantiradi:

- mustaqil, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
- haqqoniy bo'lishiga o'rgatadi;
- nazariya va amaliyot o'rtaida uzviy bog'liklikni shakllantiradi;
- muammoli vaziyatni yangicha shakllantirishga yordam beradi;
- vaziyatlarni hal etishda, unga ta'sir etuvchi omillarning mavjudligi va ularning ta'sirini e'tiborga olishga imkon beradi;
- boshqalar fikrini ham qabul qila olish malakasini shakllantiradi;
- savol berish madaniyatini tarkib toptiradi;
- qabul qilingan qaror uchun mas'ullik hissini tarbiyalaydi.

Keyslarni hal qilishda quyidagilarga e'tibor berish zarur: asosiy muammoni va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, asosiy va ikkinchi darajali omillarni ajratish, muammoni hal qilishning muqobil yechimini ham ko'rib chiqish, eng maqbul qaror qabul qilish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. J.Yo'ldoshev.O'zbekiston Respublikasi ta'lif taraqqiyoti yo'lida. T., "O'qituvchi" 1994 y
2. B.Qodirov Ta'lif tizmidagi isloxtalar: Maqsad va yo'nalishlari.T., O'zbekiston 1999 y
3. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Umumiyligi darslarida EXM dan foydalanish umumiyligi o'qitishning norasmiy usul va shakllari 1992 35-51 betlar